



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 21-yanvar, № 14 (8909)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## MABLAG'LARNING MAQSADLI ISHLATILISHIDA MOLIYAVIY NAZORAT ZARUR

Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yil 20-yanvar kuni Hisob palatasi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yilgi asosiy vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mablag'larning maqsadli ishlatilishi va dasturlar samaradorligida moliyaviy nazorat muhim. So'nggi yillarda Hisob palatasining ish uslubini o'zgartirilib, hududlarda byudjet intizomiga ko'mak beruvchi hamkor idoraga aylantirildi. Oldingi tekshiruv tizimi o'rniga xalqaro standartlar asosida audit tizimi joriy qilindi. Jahon bankining "Tashqi audit indikator"da O'zbekiston "yaxshi" darajaga ko'tarildi.

2024-yil 10-iyulda O'zbekiston Prezidentining "Byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Unda vazirlik va davlat idoralarda ichki audit tizimini takomillashtirish, sohani raqamlashtirish, konsolidatsiyalashgan byudjet

ijrosini tashqi auditdan o'tkazish kabi vazifalar belgilandi.

Raqamli transformatsiya jarayoni amalga oshirilmog'ida. "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy qilinib, unga 34 ta vazirlik va idora bog'landi.

2024-yilda Hisob palatasi yangi manbalar hisobidan 3,7 trilyon so'm byudjetga qo'shimcha tushumlarni ta'minladi. Vazirlik va idoralarning 9,2 trilyon so'mlik samarasiz xarajatlari maqbullashtirildi, 2,3 trilyon so'mlik moliyaviy kamchiliklarning oldi olindi. Davlat xaridlariga oid 4,5 trilyon so'mlik kamchiliklar bartaraf etildi.

Bunday amalga oshirilayotgan tizimli ishlarni joriy yilda ham izchil davom ettirish zarur.

Jumladan, "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga 110 ta vazirlik va idoraning

ma'lumotlar bazasi integratsiya qilinadi. Bu orqali joriy yilda 480 trilyon so'mlik byudjet xarajatlari monitoringi to'liq qamrab olindi.

Byudjetga qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash, moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish doimiy vazifa hisoblanadi. Davlat ulushi bor korxonalar moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilib borish ham muhim.

Joriy yilda byudjetga 309 trilyon so'm daromadlar tushishini ta'minlash choralari ko'riladi. Xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarni xalqaro standartlar asosida auditdan o'tkazish amaliyoti boshlanadi.

Prezident barcha davlat idoralarda moliyaviy intizom va tejamkorlikka qat'iy amal qilinishi zarurligini ta'kidladi.

## INVESTITSIYALAR TIBBIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILADI

Davlatimiz rahbari tibbiyot muassasalarini jihozlash va xizmatlar sifatini oshirishga doir takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Aholi salomatligini mustahkamlash va davolash sifatini oshirish maqsadida shifoxonalar zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanmoqda. Buning uchun byudjetdan har yili kamida 100 milliard so'm ajratilyapti.

Shuningdek, o'tgan yilning o'zida tibbiyotni yuqori texnologik uskunalar bilan ta'minlash uchun 200 million dollar xorijiy investitsiya, 94 million dollar grant jalb qilindi.

Natijada oldin faqat respublika muassasalarida bo'lgan kompyuter tomografi, magnit rezonansli tomografi, angiografi hozir viloyatlarda, o'nlab tumanlarda ham bor. Bu ixtisoslashgan xizmat aholiga yanada yaqinlashdi, degani.

Joriy yil ushbu maqsadlarga davlat hisobidan 200 milliard so'm

ajratilgan. Shuningdek, tibbiyotga 370 million dollar xorijiy investitsiya kiritilishi mo'ljallangan.

Taqdimotda tibbiyot muassasalarini jihozlash bo'yicha rejalar bayon etildi.

Xususan, Osiyo taraqqiyot bankining 100 million dollar mablag'i evaziga respublikadagi 230 ta tug'uruq muassasasi uchun 45 turdagi 21 mingta tibbiy uskuna va 6 ta reanimobil xarid qilinadi.

Germaniyaning "KfW" bankining 30 million yevro mablag'i hisobiga Qoraqalpog'iston va Xorazmdagi 19 tadan tibbiyot muassasasi yurak-qon tomir kasalliklarini davolovchi 862 ta uskuna bilan jihozlanadi.

Yana shu bankning 13,5 million yevro granti orqali Termiz shahrida o'quv markazi, talabalar turarjoyi quriladi. Bu markaz zamonaviy

o'quv-simulyatsiya va axborot texnologiyalari bilan jihozlanadi.

Davlatimiz rahbari jihozlash bu masalaning faqat bir qismi ekanini, ularda ishlay oladigan malakali mutaxassislarni hozirdan tayyorlash kerakligini ta'kidladi. Tegishli muassasalardagi shifokor va hamshiralarni qo'shimcha o'qitish vazifasi qo'yildi.

Uskunalardan samarali foydalanish ham muhim. Masalan, viloyatlarda angiografi yuklamasi o'rtacha 34 foiz. Tomografi bo'yicha holat ham xil.

Shu bois hokimliklar bilan birga davlat shifoxonalaridagi yuqori texnologik uskunalardan samarali foydalanish bo'yicha outsourcing va xususiy sheriklik loyihalari yo'lga qo'yilishi belgilandi.

O'zA.

### Oliy Majlis Senatida

## UCHINCHI YALPI MAJLIS CHAQIRILADI

Oliy Majlis Senati Kengashining majlisi bo'lib o'tdi. Majlislarni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Unda Senatning uchinchi yalpi majlisini 2025-yil 23-yanvar kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.



Videokonferensaloqa tizimidan foydalanilgan holda o'tkaziladigan yalpi majlisda qator qonunlarni muhokama qilish nazarda tutilgan. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida, "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida", "Mikromoliyalashtirish faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" hamda "Banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidan.

Yalpi majlisda "Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" hamda "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonunlar ham muhokama qilinadi.

Senatorlar jonli ijro san'atini yanada rivojlantirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi

tizimini takomillashtirish, shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish hamda alkogol va tamaki bozorini tartibga solish tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qonunlarni ko'rib chiqishni rejalashtirmoqda.

"Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ekolog" faxriy unvonini ta'sis etish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" hamda "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida"gi qonunlar yalpi majlis kun tartibidan o'rin olgan.

Shuningdek, yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnomani (Dushanbe, 2024-yil 18-aprel) ratifikatsiya qilish haqida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi qonunlar hamda Oliy Majlis Senati Kengashining qarorlarini tasdiqlash to'g'risidagi masalalar ham ko'rib chiqiladi.

"Xalq so'zi".

### Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

## AHOLI MANFAATLARINI HUQUQIY NORMALARDA AKS ETTIRISH MAS'ULIYATI

Qonun loyihalarining har jihatdan pishiq-puxta tayyorlanishi uning xalqchilligini kafolatlash barobarida hayotga tatbiq etilishini samarali ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois quyidagi palataga kelib tushgan hujjatlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqishda deputatlar katta mas'uliyat bilan yondashadi. Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari yig'ilishlarida ko'rib chiqilgan masalalar ham jiddiy muhokamalardan o'tkazildi. Ularda dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayonning taklifiga binoan 13 - 15-yanvar kunlari BAAGA rasmiy tashrifining ahamiyati haqida to'xtalib o'tildi.



Xususan, Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ushbu tashrif doirasida imzolangan hujjatlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichga chiqishiga, ikki davlatning iqtisodiyot, energetika, investitsiya va madaniy-gumanitar kabi asosiy hamkorlik yo'nalishlaridagi aloqalarni yanada kengaytirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Yig'ilishda Prezidentimiz raisligida 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining mohiyati haqida ham so'z yuritildi.

O'zLiDeP fraksiyasi rahbari Aktam Haitov yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar haqida to'xtalar ekan, investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri ekan, u bilan birga hududlarga yangi texnologiyalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishi, tadbirkorlik jadal rivojlanishi va ish o'rnlari yaratilishini ta'kidladi.

Shunday bo'lsa ham deputatlar kreditlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uni yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha o'z takliflarini bildirdi. Xususan, deputat Jasurbek Shodiyev loyihaning zarurati va ahamiyatiga to'xtalib, undagi ayrim normalar bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi kreditlarning garov mulligiga nisbatan huquqlari ustuvorligini ta'minlash, majburiyatni garovdagi mol-mulk hisobidan undirish jarayonlarini soddalashtirish hamda kredit tashkilotlarining kredit portfelidagi muammoli aktivlar ulushining kamayishiga xizmat qilishi qayd etildi.

## BMT O'zbekistonning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi intilishlarini qo'llab-quvvatlaydi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekiston bilan hamkorligi mutlaqo yangi darajaga ko'tarildi. Birgalikda 150 ga yaqin dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmog'ida. Ular orasida ekologiyani asrash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, suv resurslarini tejash mavzulari alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda energetika manbalarini diversifikatsiya qilish, ulardagi uglevodorod ulushini keskin kamaytirish - iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, barqaror rivojlanish va global xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti. Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurslar tejamkorligiga asoslangan "yashil rivojlanish" modeliga o'tishdir. Shu ma'noda, 2025-yilning O'zbekistonda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi bejiz emas.

### Biz va jahon

O'zbekistonda BMT bilan birgalikda global kun tartibiga oid, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, turizmni rivojlantirish, kambag'allikka va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha yirik xalqaro tadbirlar o'tkazilayotir.



Xususan, 2023-yil noyabr oyida Samarqand shahrida dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlari vakillari hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari ishtirokida

BMTning Cho'llanish bo'yicha konvensiyasini amalga oshirish qo'mitasining 21 - sessiyasi uyushtirildi.

### Mushohada

## BILIM OLIISH IMKONIYATLARI BARCHA UCHUN TENG

2025-yil davlat dasturi bo'yicha Prezident Farmoni loyihasida 5 ta ustuvor yo'nalishga oid amaliy chora-tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lib, keng jamoatchilik va ekspertlar tomonidan qizg'in muhokama qilinmoqda. Oddiy fuqaro va ziyolilar, o'rtacha bo'lgan rahbarlardan tortib davlat arboblari gacha ushbu dasturiy hujjat mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida o'z munosabatlari, taklif va tashabbuslarini bildirayotgan xalqimizning amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq emasligi, mamlakat taqdiri uchun daxldorlik tuyg'usi tobora ustuvor bo'lib borayotganini anglatadi.

Jumladan, O'zbekistonda inkluziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasida tizimli

ishlar amalga oshirilmoqda. Nogironligi bo'lgan o'quvchilarga munosib sharoit yaratish, ularning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish borasida keyingi yillarda bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar imzolandi.

Fakt va raqamlar

## "YASHIL" TARAQQIYOT O'ZBEKISTONDA UMUMMILLIY HARAKAT DARAJASIGA KO'TARILDI

Mamlakatimizda iqtisodiyotning energetikaga bo'lgan talabini to'liq qondirish maqsadida "yashil" quvvatlar jadal rivojlantirilyapti. Jumladan:

- o'tgan besh yilda energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilindi va 9,6 gigavatt zamonaviy energiya quvvatlari foydalanishga topshirildi;
- xususan, 3,5 gigavattli 14 ta quyosh, shamol elektr stansiyalari va 300 megavattli 2 ta saqlash tizimi ishga tushirildi.

Hozirda xorijiy hamkorlar bilan qiymati 26 milliard dollardan ziyod va umumiy quvvati 24 gigavatt bo'lgan 50 dan ortiq yirik loyihalar amalga oshirilmog'ida. 2030-yilga qadar mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.



Oliy Majlis Senatida

“MAHALLA YETTILIGI” – KENGASH – SENAT HAMKORLIGI

Oliy Majlis Senatida “Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yettligi” bilan o'zaro hamkorligini yanada kuchaytirish masalalari” mavzuida mahalliy Kengashlar kotibiyatlari mudirlari va xodimlari uchun o'quv-seminar tashkil etildi.

Unda joylardagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish, hududlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va loyihalarni manzilli o'rganish hamda samarali nazoratni amalga oshirish bo'yicha “mahalla yettligi” – Kengash – Senat” uch bog'inli hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilgani ta'kidlandi.

hamkorligini amalga oshirish hamda respublika darajasidagi muammoli masalalarni Oliy Majlis Senatiga taqdim qilish tizimlari tasdiqlandi.

Seminar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni xatlovdan o'tkazish va natijalari asosida ularning ijrosi yuzasidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha reja ishlab chiqish lozimligi aytiladi. Mahalliy Kengash deputatlarining “mahalla yettligi” bilan hamkorligi, loyihalarni o'rganish va ijrosi yuzasidan nazoratni yo'lga qo'yish, muammoli masalalarni sessiyada muhokama qilish, respublika darajasidagi muammolarni Senatga taqdim etish mexanizmlari haqida tushuntirishlar berildi.

Qarorda belgilangan vazifalar ijrosining sifati va o'z vaqtida amalga oshirilishida mahalliy Kengashlar faol bo'lishi kerakligi ta'kidlanib, bu bo'yicha tavsiya va takliflar bildirildi.

Ushbu amaliyotni yanada takomillashtirish maqsadida imzolangan Oliy Majlis Senati Kengashining shu yil 14-yanvardagi qarorida hududlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosini samarali nazorat qilish, mahallalardagi muammolarni hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yettligi” bilan o'zaro

“Xalq so'zi”.

O'ZARO SHERIKLIK ISTIQBOLLARI

Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasida bo'lib o'tgan majlisda “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

kiritish to'g'risida”gi qonun bilan “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi va “Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida”gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda va u mazkur masalalarni tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan. Unda fuqarolar yig'ini raisi vakolatlari muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilib, bo'shab qolgan o'rinlarga fuqarolar yig'inlari raislarini 5 yil muddatga saylash, shuningdek, fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar komissiyalarining vakolatlariga o'tkazish nazarda tutilmoqda.

Qonunchilikka kiritilayotgan bunday o'zgartirish va qo'shimchalar saylovni uyushtirish, o'tkazish bo'yicha hududlardagi mas'ul rahbarlarning javobgarligini oshiradi hamda bo'shab qolgan o'rinlarga fuqarolar yig'ini raisi saylovi o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlaydi.

Majlis yakunida mazkur masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

“Xalq so'zi”.

Senator va hayot

YANGI TAKLIFLAR, REJALAR TAHLILI

Poytaxtimizning Mirobod tumani hokimligida Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova hamda xalq deputatlari Mirobod tumani Kengashi deputatlari ishtirokida muloqot bo'lib o'tdi.

Unda “O'zbekiston – 2030” strategiyasining “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida”gi Prezident Farmoni loyihasing mazmun-mohiyati, belgilangan vazifalardan ko'zlangan asosiy maqsad, ularni amalga oshirishda mahalliy Kengashlarning tutgan o'rnini muhokama qilindi.

Tuman Kengashi faoliyatini namunalni tashkil etish, Mirobod tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida mahalliy deputatlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar xususida so'z yuritildi. Uchrashuv davomida davlat dasturi loyihasi yuzasidan mahalliy Kengash deputatlarining takliflari tinglandi.

“Xalq so'zi”.

STRATEGIK MUNOSABATLAR KENGAYMOQDA

Mamlakatimizdagi ijobiy o'zgarishlar dunyo hamjamiyatining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishini tobora oshirmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan 13 – 15-yanvar kunlari ushbu mamlakatga rasmiy tashrifni amalga oshirdi.

Fikr

Generativ sun'iy intellektni ishlab chiqish, jumladan, energetika sohasida “katta til modellari”ni qo'llash, Toshkentda yirik ma'lumotlarni qayta ishlash markazini tashkil etish bo'yicha hamkorlikni kengaytirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Muhammad bin Zoid nomidagi Sun'iy intellekt universiteti bilan almashinuylarni faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Prezident talabalarini o'qitish dasturini ishga tushirib, bu sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha “Yo'l xaritasi”ni qabul qilishni taklif etdi.

Ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarini birgalikda ishga tushirish, texnologik klasterlar tashkil qilish va kontaktsiz to'lov operatsiyalari uchun innovatsion yechimlarni joriy etish rejalarini muhokama qilindi. Abu-Dabi shahridagi “Qasr ash-Shati” qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va ko'p qirali hamkorlik munosabatlari, xususan, siyosat, savdo-iqtisodiyoti, investitsiya, innovatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa ustuvor sohalarni yanada rivojlantirishning muhim masalalarini muhokama qildi. Siyosiy aloqalarni mustahkamlash maqsadida ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi muloqotni yanada rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi. Yetakchilar iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini, jumladan, sun'iy intellekt, raqamlashtirish, “yashil” energetika, shaharsozlik va infratuzilma, turizm, xususiy biznes kabi 6 ta asosiy yo'nalishni belgilab oldi. Har bir ustuvor

soha bo'yicha alohida ishchi guruhlar tashkil etishga kelishildi.

Tomonlar 2025 – 2027-yillarni “O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi davri” deb e'lon qilish taklifini qo'llab-quvvatladi. Shu ma'noda, 2030-yilga qadar o'zaro savdo hajmini 10 barobar ko'paytirish va investitsiya portfelini 50 mlrd. dollarga yetkazishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifa etib belgilandi. Bu kabi katta miqdordagi investitsiyalarning O'zbekistonga olib kirilishi ko'plab sohalarda rivojga muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchiidan, ishsizlik muammosi dunyoda dolzarb bo'lib turgan bir vaqtda xorijiy investitsiyalar kiritilishi hisobiga tashkil etilayotgan yangi ish o'rinlari bandlik darajasi va aholi daromadlari oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, kiritilayotgan investitsiyaning energetika sohasiga jalb etilishi energiya ta'minoti sifatini yaxshilash bilan birgalikda sohada yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatini beradi.

Uchinchiidan, bugungi kunda iqlim o'zgarishlari global muammo sifatida ko'rib tutilgan bir vaqtda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarilishining kengayishi “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tashrif davomida O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasida imzolangan bir qator memorandum va shartnomalar ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikni yangi bosqichga olib chiqqani bilan ahamiyatlidir.

**Odiljon MAMATKARIMOV, Oliy Majlis Senatning Xalqo munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.**

GALDAGI MARRALARGA YO'L OCHGAN MULOQOT

O'zbekiston elchisi Ravshanbek Alimov Turkmanistonning Dashoguz viloyati hokimi Dovletgeldi Babayev bilan uchrashuv o'tkazdi, deb xabar qilmoqda “Dunyo” axborot agentligi muxbiri. Muloqot chog'ida O'zbekiston hududlari va Dashoguz viloyati o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama etildi.

Uchrashuv

O'tgan yili Turkmanobod shahrida o'tkazilgan ikkinchi o'zbek – turkman hududlararo forumi natijalaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston hududlarining Dashoguz viloyati bilan hamkorligi istiqbollari ko'rib chiqildi. Xorazm va Dashoguz viloyatlari hokimliklari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan “Yo'l xaritasi”ning qabul qilinishi o'zaro manfaatli aloqalarning tizimli rivoj topishi uchun muhim qadam bo'lishi qayd etildi.

“Shovot – Dashoguz” chegaraldagi savdo zonasining barpo qilinishi O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi o'zaro savdo-sotiq hajmini oshirishga, birodar qo'shni davlatlarning chegaradosh viloyatlarining iqtisodiyoti va aholisi farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Turkmaniston Sanoatchilar va tadbirkorlar uyushmasining Dashoguz viloyati boshqarmasida mahalliy tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqot chog'ida ikki davlat ishbirolarini ishtirokida qo'shma biznes forumlari o'tkazish, sanoat va agrotexnologiya kooperatsiyasi loyihalarini amalga oshirish hamda savdo aloqalarini faollashtirish orqali hududlararo hamkorlik istiqbollari belgilab olindi.

Turkman ishbirolar tomonidan atroflicha javob va izohlar berildi. Uchrashuv yakunida ikki davlat hududlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston elchixonasi bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yish va birgalikda sa'y-harakatlarni faollashtirishga kelishildi. Mamlakatimizning diplomatik vakolatxonasi vakillari “Shovot – Dashoguz” chegaraldagi savdo zonasida olib borilayotgan qurilish jarayoni bilan ham yaqindan tanishdi.

AHOLI MANFAATLARINI HUQUQIY NORMALARDA AKS ETTIRISH MAS'ULIYATI

O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokama markazida bo'ldi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda oldi-sotdi munosabatlarida iste'molchilar huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Chunki sotuvchilarning fuqarolarga tovarlarni kelishilgan muddatda yetkazib bermayotgani bilan bog'liq murojaatlar tobora ko'payayotir. Jumladan, 2022-yilda 500 ta, 2023-yilda 1 373 ta, 2024-yilda esa 1 476 ta murojaat kelib tushgan va bunga amaldagi qonunlarda javobgarlik belgilanmagani ham sabab bo'lgan.

Ana shunday holatlarning oldini olish maqsadida “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi

Qonun tashabbuskorlari ko'tarilgan savollar bo'yicha batafsil tushuntirish berib, deputatlarning asosli takliflariga e'tibor qaratilishi va qonun loyihasini maromiga yetkazishda inobatga olinishini bildirdi.

Deputatlar loyihaning qabul qilinishi

“Yer kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini foydalanish turiga qarab 2 guruhga, ya'ni qishloq xo'jaligi yer uchastkalarini va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi yerlarga bo'lish bo'yicha aniq normalar kiritilmoqda.”

aholining iste'molchi sifatida qonuniy manfaatlarini himoya etish va oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq sotuvchi shartlashilgan muddatlarda tovarlarni iste'molchiga topshirmasligi kabi holatlarning oldini olishga xizmat qilishini qayd etib, uni qo'llab-quvvatlashdi.

O'zbekiston “Adolat” sotsial-



Qonunga qo'shimcha kiritilib, unda tovarlarni kelishilgan muddatda yetkazib bermagan sotuvchilarga javobgarlik belgilash taklif etilmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari iste'molchilar manfaatlaridan kelib chiqib, qonun loyihasini yanada takomillashtirish va maromiga yetkazish bo'yicha bir qator takliflar berdi. Ayrim normalar yuzasidan asosli savollar ko'tarildi. Masalan, fraksiya a'zosi Dilnoza Azizova bu norma fuqarolarga elektr energiya, suv, gazni o'z vaqtida yetkazib bermagan idoralarga ham qo'llaniladimi, degan masalani ko'tardi. Shu kunlarda ayrim hududlarda elektr energiya va gaz yetkazib berishda uzilishlar kuzatilayotgani, tegishli idoralar esa bu borada aholini ogohlantirish haqida o'ylamayotganini qayd etdi.

demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida donorlik harakatini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Ma'lum qilinganidek, ushbu qonun loyihasi bilan “O'zbekiston Respublikasi faxriy donori” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslarga ular uchun qulay bo'lgan vaqtda har yilgi mehnat ta'tiliga chiqish, shahar transportining barcha turidan (yo'nalishli va yo'nalishsiz taksilardan tashqari) bepul foydalanish huquqini berish belgilanmoqda.

Fraksiya a'zolari donornlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, aholi orasida beg'araz donorlik madaniyatini shakllantirish, donorlik harakatini keng jamoatchilik ishtirokida rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasining dolzarbligini

ta'kidlagan holda uni qo'llab-quvvatladi.

Yig'ilishda qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasining muhokamasiga kiritish va ko'rib chiqish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham qizg'in muhokama qilindi.

Loyiha bilan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritishda uning va xalqaro shartnoma loyihasining o'tkazilgan huquqiy ekspertizasi xulosalarini, shuningdek, qonun loyihasining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi va u bo'yicha o'tkazilgan jamoatchilik muhokamasini natijalarini taqdim etish to'g'risidagi talabning belgilanishini nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga o'zi kiritgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda qabul qilinguniga qadar Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taklif kiritish orqali uni chaqirib olish huquqini berishning huquqiy asosi belgilanyapti.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasining ahamiyatiga to'xtalib, uni ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan berilgan takliflar e'tiborga olingani va ularning aksariyati hujjat matnida aks etganligini e'tirof qilishdi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha kiritish haqida”gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan sotuvchi iste'molchiga shartnoma da ko'rsatilgan muddatlarda tovarni topshirmagan taqdirda, majburiyatning bajarilmagan qismiga qayta qaytarilgan tovar bahosining 100 foizidan oshib ketmasligi, penyaning to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmasligi belgilanmoqda.



iste'molchi sifatidagi qonuniy manfaatlarini, huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq sotuvchi shartlashilgan muddatda yoki muddatlarda tovarlarni iste'molchiga topshirmasligi kabi holatlarning oldini oladi.

Yig'ilishda, shuningdek, “O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ham muhokama qilindi.

Deputatlar bir qator masalalarda aniqlashtiruvchi savollar bilan murojaat etdi. Mas'ullar har bir Respublikasi

“Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun loyihasida sotuvchi iste'molchiga shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda tovarni topshirmagan taqdirda, majburiyatning bajarilmagan qismiga qayta qaytarilgan tovar bahosining 100 foizidan oshib ketmasligi, penyaning to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmasligi belgilanmoqda.”

savolga atroflicha javob berdi. Fikr-mulohaza hamda takliflar asosida qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida “O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan sug'oriladigan yer uchastkalarini boshqa toifaga o'tkazish bo'yicha talablarni qonun

darajasida yanada kuchaytirish taklif etilmoqda. Shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini foydalanish turiga qarab 2 guruhga, ya'ni qishloq xo'jaligi yer uchastkalarini va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi yerlarga bo'lish

bo'yicha aniq normalar kiritilmoqda. Bundan tashqari, sug'oriladigan yerlarni qat'iy muhofaza qilish, bunday yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanish masalalari faqat sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti va tuproq sifati bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar yuz bergan taqdirda ko'rib chiqilishi yuzasidan huquqiy normalar belgilanyapti.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari tomonidan qonun loyihasining qabul qilinishi mamlakatimizda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi obyektlarni joylashtirish, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya etishga xizmat qilishi qayd etildi.

Muhokama yakunida fraksiya a'zolari tomonidan taklif va tavsiyalar berilib, qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasining muhokamasiga kiritish va ko'rib chiqish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham fraksiya a'zolari diqqat markazida bo'ldi.

Mazkur qonun loyihasi bilan ayrim qonun hujjatlariga bir qator qo'shimchalar kiritilmoqda. Misol uchun, qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga o'zi kiritgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda qabul qilinguniga qadar qo'y palataga taklif kiritish orqali uni chaqirib olish huquqini berishning huquqiy asosi belgilanmoqda.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi va qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda fraksiyalar faoliyatiga oid boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Xalq so'zi”.

## Davlat dasturi loyihasi – muhokamada

ATROF-MUHIT  
MUSAFFOLIGI  
KAFOLATI

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi loyihasi Prezidentimizning Oliy Majlis palatalaridagi nutqlari hamda xalqimizga yo‘llagan Yangi yil tabrigida aks etgan g‘oya va takliflar, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar asosida ishlab chiqilgan. Unda mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta‘minlash, aholi farovonligini yuksaltirishga oid muhim maqsad va chora-tadbirlar belgilangan.

Ma‘lumki, globallashtirish jarayonida yirik shaharlarning urbanizatsiya darajasi zamonaviy talablarga mutlaqo javob bermaydi. Urbanizatsiya jarayonining ijobiy ahamiyatga yoki salbiy tendensiyaga ega bo‘lishi uning davlat tomonidan tartibga solinishiga uzviy bog‘liq.

Dastur loyihasidagi shaharlarimiz urbanizatsiya jarayonlari optimizatsiyasi bilan bog‘liq 3 ta tadbirga alohida e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, bugun Toshkent, Nukus va viloyatlar markazlari hududlarida 200 ga yaqin ekologik xavfli obyektlar faoliyat yuritmoqda va ularning aksariyati energetika, qora-metallurgiya, asbest-shifer, oyna ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda teri-ko‘nchilik va parrandachilik korxonalarini hisoblanadi. Mavjud 35 ta sement zavodining 6 tasi, shuningdek, 100 ga yaqin teri-ko‘nchilik va parrandachilik korxonalarini yirik shaharlar hududida joylashgan bu borada tezkor natijalarga erishishni taqozo etadi.

Ushbu holatlar inobatga olinib, loyihaning tegishli bandida ekologik xavfli korxonalar faoliyati bo‘yicha yangi loyihalarni amalga oshirishni taqiqlash hamda faoliyat yuritib kelayotgan energiya sig‘imi yuqori bo‘lgan ekologik xavfli obyektlarni mazkur shaharlardan bosqichma-bosqich ko‘chirish mexanizmini joriy etish belgilanmoqda.

**Yana bir muhim masala. O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo, balki MDH mamlakatlari orasida aholisi tez ko‘payib borayotgan davlatlardan biri sanaladi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu aholisining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirish barobarida, ko‘p qavatli turarjoylarda yer osti va yer usti avtomobil turargohlari nazarda tutilishini hamda yomg‘ir va texnik suvlardan sug‘orishda foydalanish tizimlarini tashkil etishni taqozo qiladi.**

Yaqin yillarda megapolis shaharlarning yana 2 taga ko‘payishi, 300 minglik shaharlar soni 30 taga yaqinlashishi kutilayotgani e‘tiborga molikdir. Yurtimizda avtomobilsozlik sanoati va ular importining keskin o‘shishi natijasida aholining shaxsiy transport vositalari salkam 5 milliontaga yetmoqda. Aksariyat ko‘p qavatli uylarda avtoturargohlarning mavjud emasligi ko‘chalarda tirbandliklarni keltirib, yo‘l-transport hodisalarining ko‘payishiga sabab bo‘lyapti. Boz ustiga, shaharlarda mavjud

yomg‘ir va drenaj suvlaridan samarali foydalanish mexanizmi joriy etilmagan. Vaholanki, ushbu manbalardagi suvlarni yig‘ish orqali texnik va do‘daraxtlarni sug‘orish uchun sarflanadigan ichimlik suvini iqtisod qilish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dastur loyihasining tegishli bandida shaharsozlik hujjatlarida ushbu tadbirlarni, ya‘ni avtoturargohlarni qurish hamda sug‘orish tizimida yomg‘ir va texnik suvlardan tizimli foydalanishni majburiy qilib belgilash nazarda tutilayotgani ayrim masalalarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Ayonki, mamlakatimiz Parij kelishuvi majburiyatlarini yuzasidan “Issiqxonaga gazlari”ni 2010-yildagiga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligi hisobiga 35 foizga qisqartirish majburiyatini olgan. Bu borada Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga yangi vakolatlar, ya‘ni davlat organlarining uglerod neytralligiga erishish, “yashil” loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan “yashillik dasturlari”ni vazirlik bilan kelishish vakolati berilmog‘da.

Joriy yildan boshlab esa har yili davlat organlari va ijtimoiy obyektlarning atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va “yashil” texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha ekologik reytingi yuritib boriladi. Dastur loyihasiga kiritilayotgan bu yangiliklar shaharlarimizning ekologik barqarorligini ta‘minlash barobarida, fuqarolarimizga yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqlarini ta‘minlashga imkon beradi.

Ushbu dasturiy hujjatda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda buta ko‘chatlari va qalamchalarini ekish, respublikada yashil bog‘lar barpo etish, shaharlarni to‘liq “yashil belbog‘”lar bilan qamrab olish, o‘rmon bilan qoplangan maydonlarni 4,1 million gektarga yetkazishdek vazifalar ham o‘rin olgani quvonarlidir. Zotan, bularning barchasi aholining qulay tabiiy muhitga ega bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini oladi.

Keng jamoatchilik tomonidan berilayotgan taklif va mulohazalar mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lashdek barqaror taraqqiyot kafolati bo‘lgan mazkur hujjatning xalqchil va mukammal chiqishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, keng jamoatchilik, xususan, biz, deputatlar dastur loyihasini yanada takomillashtirishda faol ishtirok etishimiz maqsadga muvofiq.

Mohira XO‘JAYEVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

## BMT O‘zbekistonning ekologik barqarorlikni ta‘minlashdagi intilishlarini qo‘llab-quvvatlaydi

Yoki 2023-yilning sentabrida o‘tkazilgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiyani yodga olaylik. Agrar tarmoqni rivojlantirishdagi nomutanosibliklar, suv resurslarining tanqisligi, qo‘shimcha qiymat yaratishning uzun va samarasiz zanjirlari, logistikadagi uzilishlar va boshqalar barqaror rivojlanish uchun asosiy xatarlar anjumanda qizg‘in muhokama etildi. O‘zbekiston va FAO o‘rtasida 2030-yilga qadar mo‘ljallangan yangi hamkorlik dasturiga qishloq xo‘jaligini ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilish, agrar sohani raqamlashtirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning ta‘sirchan vositalarini amalga oshirish va agrooziq-ovqat tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shma tadbirlarni kiritishga kelishib olindi.

O‘zbekiston barqaror taraqqiyot sohasida BMTning 2030-yilgacha global kun tartibiga kiritilgan muhim masalalar, ya‘ni butun insoniyat hayoti va farovonligi darajasini yuksaltirish, dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali adolati va barqaror jamiyat qurish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni uddalab, sezilarli natijalarga erishmoqda. BMTning 2030-yilgacha kun tartibida bo‘lgan masalalar jiroi yo‘lida hukumat tomonidan 2030-yilgacha davrni qamrab olgan

barqaror taraqqiyot sohasidagi milliy maqsad hamda vazifalar qabul qilindi, 16 milliy maqsad va 125 vazifa tasdiqlandi.

Eng asosiysi, ekologiyani asrash va “yashil” energiyani rivojlantirish masalalariga befarq bo‘lmagan rasmiy Toshkent bilan BMT birgalikda suvdan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va ekologik tahdidlarga qarshi kurashish, jumladan, Orolbo‘yi muammolarini hal etishda sa‘y-harakatlarni birlashtirish, mintaqaga innovatsion texnologiyalar va investitsiyalarni jalb qilish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini tatbiq etish kabi sohalarda fikr almashish maydonini kengaytirdi.

E‘tiborlisi, O‘zbekiston hukumati keyingi yillarda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda faol, o‘zining jo‘yali taklif va tashabbuslari bilan ajralib turibdi. Vazirliklar ham amalga oshirilayotgan ishlar haqida hisobot beribgina qolmay, aniq muammolar va ularning yechimi bo‘yicha jamiyatga o‘z takliflarini beryapti. Bu BMT uchun ham muhim. Chunki xalqaro hamjamiyat ham dunyoda iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni asrash targ‘iboti bilan shug‘ullanadi. Biz O‘zbekistonning bu boradagi siyosiy irodasidan xursandmiz.

Ayniqsa, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni loyihasidagi

ustuvor vazifalar, yo‘nalishlar bizni quvontiradi. Unda atrof-muhitni asrash, ekologik vaziyatni yaxshilash, “yashil” energiyani rivojlantirish masalalariga keng o‘rin berilgan. O‘ylaymizki, bu keng qamrovli dastur O‘zbekiston rahbariyatining mamlakatni har tomonlama rivojlantirish borasidagi intilishlarining tasdiqidir. Bu orqali O‘zbekiston BMTning 2030-yilgacha global kun tartibiga kiritilgan muhim masalalar, ya‘ni butun insoniyat hayoti va farovonligi darajasini ko‘tarish, dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali adolati va barqaror jamiyat qurish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirib, sezilarli natijalarga erishmoqda. Biz O‘zbekiston hukumati davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosida ko‘maklashmoqchimiz.

Mamlakatimizda BMTning 25 ta turli xil agentligi va idorasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ana shu muassasalarning ixtisosliklaridan kelib chiqib, hamkorlikda turli loyihalarni amalga oshirish ustida ish olib boryapmiz. Masalan, suv resurslarini tejash, suvdan unumli foydalanish, ekotizimni yaxshilash, energiya samaradorligini ko‘tarish, Orolbo‘yida yashayotgan odamlarga ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish shular jumlasidandir.

Hech kimga sir emas, bugungi kunda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilmoqda. Ana shunday murakkab sharoitda Orol

dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylangan. Global muammo bo‘lgan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo‘lida O‘zbekiston o‘z imkoniyatlarini darajasida harakat qilmog‘da. So‘nggi yillarda Orol dengizining qurigan tubida ulkan maydonda qurg‘ochlikka chidamli o‘simliklardan iborat yashil hududlar barpo qilindi. Ammo fojia ko‘lamli shu qadar kengki, uni kamaytirishga bitta davlatning imkoniyatlari yetmaydi. Bu sa‘y-harakatlarni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo‘llab-quvvatlashi juda muhim.

Bugun zamonning yana bir og‘riqli masalasi – global miqyosda suv tanqisligi xavfidir. Keyingi 30 yilda Markaziy Osiyoda havo harorati birmuncha ko‘tarilib, Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqadagi ikkita yirik

daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta‘minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda. Muzliklarning erishi, tabiiy ofatlar, shuningdek, shiddatli demografik o‘shish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasida yuzaga kelayotgan texnologik omillar tufayli mintaqada suv va ekologiya bilan bog‘liq vaziyat yomonlashib borayotgani xavotir uyg‘otmaydi. Bizdagi ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirning o‘zidayoq mintaqa davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga milliardlab mablag‘ yo‘qotmoqda. Bu oxir-oqibatda oziq-ovqat bo‘hronini keltirib chiqarishi mumkin. Agar o‘z vaqtda ta‘sirchan choralar ko‘rilmasa, ushbu muammolar oqibatlari mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston rahbari BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo‘yicha maxsus vakili lavozimida ta‘sis etilishini qo‘llab-quvvatlashini bildirgandi. Chunki Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti – suv resurslari” mexanizmini ishga solib, eng ilg‘or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish muhim vazifa. Umuman olganda, O‘zbekiston Prezidentining boshqa mavzular qatori ekologiyaga oid tashabbuslari ro‘yobi, albatta, mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish kabi strategik maqsadlar ro‘yobiga xizmat qilishiga shubha yo‘q. Biz bu borada O‘zbekiston bilan hamkordagi ish bajaramiz.

Sabina MAXL,

BMTning O‘zbekistondagi doimiy muvofiqashtiruvchisi.

BILIM OLISH IMKONIYATLARI  
BARCHA UCHUN TENG

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini hamda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunga inklyuziv ta‘lim shakli kiritildi. Bundan tashqari, BMTning Bolalar jamg‘armasi – UNICEF O‘zbekistonning inklyuziv ta‘lim sohasidagi islohotlarini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

“Inklyuziv ta‘lim” ingliz tilidan olingan bo‘lib, uyg‘unlashtirish, qamrab olish ma‘nolarini bildiradi. Bu alohida ta‘limga muhtoj bolalar va o‘smirlarning rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat‘i nazar, o‘zining faol ishtirokida ijtimoiy hayotga moslashtirish va ta‘lim tizimiga to‘liq qamrab olishni ifodalaydi.

Inklyuziv ta‘limda nogironligi bo‘lgan o‘quvchi yoshlarning shaxsiyati va jismoniy imkoniyatidan qat‘i nazar, ularga maxsus sharoitlar asosida o‘quv jarayonlari yaratiladi.

Inklyuziv ta‘lim mamlakatimizda alohida e‘tiborga muhtoj bo‘lgan o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat‘i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonlariga jalb qilishni ifodalovchi ta‘lim tizimi bo‘lib, hozirgi paytda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Xo‘sh, alohida ehtiyojli bor bolalarni inklyuziv ta‘lim tizimiga jalb etish qanday ijobiy natijalar beradi? Avvalo, inklyuziv ta‘lim qashshoqlik va ajratish iskanjasidan qutulishga, kamsitishlarning oldini olishga, maxsus ehtiyojli bolaning o‘z oilasi va jamiyat davrasida bo‘lishiga imkon beradi, ta‘lim sifatini yaxshilaydi.

Bolalar uchun xavfsiz va inklyuziv ta‘lim muhitini yaratish mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu maqsadlar uchun uch yil davomida 600 million AQSh dollaridan ortiq mablag‘ jalb etilishi rejalashtirilgan. Nogironligi bor bolalar to‘rt murchasi sog‘ bolalar bilan bir safda, erkin va sifatli ta‘lim olishi uchun sharoitlar yaratilayapti. Mana, 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab mingga yaqin maktablarda inklyuziv sinf tashkil qilinib, yana 2 mingga yaqin nogironligi bor bolalar o‘z tengdoshlari bo‘lgan sog‘lom bolalar bilan bir safda ta‘lim olishi uchun sharoit yaratiladi. Jismoniy va ruhiy imkoniyati cheklangan bolalarga maktabga kelib-kitish xarajatining 75 foizini qoplash tizimi joriy qilinadi. Har bir tumanda

bittadan bog‘chada inklyuziv ta‘lim guruhi ochiladi.

Mamlakatimizda o‘zi harakatlanmaydigan 23 ming nafar fuqaro otanasi, turmush o‘rtog‘i yoki bolalari qarovida ekanligi hisobga olinib, joriy yil boshidan ularning 19 ming nafariga uyda va 4 ming nafariga kunduzgi qatnov asosida qarash yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan. Bu tajriba avval Toshkent shahrida, yil yakuniga qadar esa viloyatlarda yo‘lga qo‘yladi. Bunday xizmatlarni ixtiyoriy ravishda o‘z zimmasiga olgan xususiy sektorga oila xarajatining 80 foizini davlat to‘laydi.

BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ta‘lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi ekan alohida e‘tirof etilgan bo‘lib, o‘z navbatida, nogironligi bo‘lgan, ya‘ni maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishli hisoblanadi. 1975-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya, 1989-yildagi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya alohida ehtiyojli bolalarning ta‘lim olish huquqini kafolatlaydi. Konvensiyaning 23-bandida shunday deyiladi: “Nogiron bolaning alohida ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotiga qo‘shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta‘lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozim”. Shu asosda 2002-yilda Buyuk Britaniyaning “Bolalarni qutqarish” (“Save the children”) jamg‘armasi tomonidan “Maktablar hamma uchun” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasi nashr etildi.

190 dan ziyod mamlakatlar tomonidan ko‘ngilli tarzda ratifikatsiya qilingan konvensiya asosida maxsus yordamga muhtoj bolalarga to‘liq imkoniyatlar yaratish hamda ijtimoiy moslashtirishni to‘laligicha yo‘lga qo‘yish maqsadida ularga umumta‘lim maktablarda ta‘lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi. Natijada 1990-yilda Tailandda bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada

Ta‘lim olish imkoniyatlarining barcha uchun teng huquqli tarzda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi inklyuziv ta‘lim shakli dunyo hamjamiyatiga yuzlanayotgan O‘zbekistonda ham bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Inklyuziv ta‘limni butun mamlakat bo‘ylab ravnaq toptirishga qaratilgan islohotlar bunga amaliy misoldir.

**Ro‘zibek TO‘RAYEV,**  
Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining  
Inklyuziv ta‘lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqashtirish bo‘limi boshlig‘i.

“Ta‘lim hamma uchun” umumjahon deklaratsiyasi qabul qilindi. Bu deklaratsiya dunyoning 160 ga yaqin davlatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari tomonidan ma‘qullandi va bu har bir bolaning mukammal ta‘lim olishini kafolatlaydi.

Aslida nogironligi bo‘lgan bolalar qo‘llab-quvvatlangan jamiyatda ularning salohiyatini to‘liq rivojlantirish imkoniyati ustuvor bo‘ladi. Bunday sharoitda ular ijtimoiy jamiyatga moslashib boradi, o‘zlarini yanada qulay va xavfsiz his etadi. Ular ijtimoiy mas‘uliyat darajasi yuqori bo‘lgan faol fuqaro sifatida voyaga yetadi.

2020 – 2025-yillarda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida “ta‘lim barcha uchun” tamoyili asosida O‘zbekiston maktablarining kamida 51 foizini ana shu yo‘nalishga o‘tkazish rejalashtirilgan. Inklyuziv ta‘limga jalb etilgan o‘qituvchi va o‘qituvchilar uchun 9 nomdagi dastur hamda ota-onalar uchun 5 nomdagi metodik tavsiyalar, inklyuziv ta‘lim tashkili etilgan umumta‘lim maktablarining bino va jihozlariga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi.

Inklyuziv ta‘lim tashkili etilgan umumta‘lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 2250 nafar maktab direktori, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda psixologlari 72 soatlik o‘quv kursida o‘qitildi. Sohani yanada rivojlantirish, uni keng joriy etib borish borasida xalqaro tashkilotlar hamda Buyuk Britaniya, Yaponiya, Finlyandiya kabi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan birgalikda 24 nafar mentor tayyorlanib, inklyuziv ta‘lim joriy etilgan maktablarining 285 nafar boshlang‘ich sinf va maxsus pedagogi, psixologlari, rahbarlari uchun o‘quv seminarlari hamda treninglar o‘tkazildi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan kar va zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta‘limga jalb etish maqsadida Toshkent shahridagi tajriba-sinov maydonchalari sifatida tashkili qilinadigan bitta pilot umumta‘lim maktabi tanlandi.

Jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan davlat dasturi loyihasida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati va har bir yo‘nalish kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlar nazarda tutilgan.

YAGONA RAQAMLI  
BOSHQARUV TIZIMI  
AFZALLIKLARI

Davlat dasturi to‘rtinchi yo‘nalishining amaliy chora-tadbirlar loyihasining 29-bandida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmat va huquqlarini himoya etishga yo‘naltirish maqsadida avtomobil yo‘llarida transport vositalarining erkin va xavfsiz harakatlanishini ta‘minlash nazarda tutilgan. Bunda respublika bo‘yicha barcha tartibga solingan chorrahalarga intellektual transport tizimlarini o‘rnatish va yagona raqamli boshqaruv tizimi joriy qilish belgilangan.

Bu chora-tadbirlarning davlat dasturi loyihasida ilgari surilishi bejiz emas. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida jiddiy oqibatlar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarini kamida 50 foizga kamaytirishga erishish vazifasi belgilangan.

Alohida ta‘kidlash joizki, 2023-yilda sodir etilgan 9 839 ta yo‘l-transport hodisasi oqibatida 9 209 nafar fuqaro jarohatlangan va 2 282 nafar fuqaro nobud bo‘lgan. Eng achinarlisi, 2023-yilda bolalar bilan bog‘liq 1 794 ta yo‘l-transport hodisasi yuz berib, ularda 1 568 nafar bola jarohatlangan va 263 nafar bola hayotdan ko‘z yumgan.

Shu sababli intellektual transport tizimlarini o‘rnatish va yagona raqamli boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Haydovchilar, piyodalalar va transport tizimlari uchun xavfsiz, samarali va ekologik toza muhit yaratish dolzarb masalaga aylandi. Bunday sharoitda intellektual transport tizimlari yo‘l harakatini boshqarishning zamonaviy yechimlaridan biri hisoblanadi.

Intellektual transport tizimlari, bu – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda yo‘l harakatini boshqarish, xavfsizlikni oshirish va transport infratuzilmasini samarali foydalanishga qaratilgan

tizimdir. Bu tizimlar yo‘lovchilar, haydovchilar va transport xizmatini ko‘rsatuvchi tashkilotlar uchun bir qator qulayliklar yaratishni maqsad qiladi.

Birinchiidan, intellektual transport tizimlari haydovchilar va piyodalalar uchun real vaqtda ma‘lumot taqdim etadi. Masalan, yo‘llardagi avariya, tezlik cheklavleri, yo‘l ta‘miri yoki havo sharoitlari haqida ogohlantirish orqali yo‘l-transport hodisalarini kamaytiradi.

Ikkinchiidan, intellektual svetoforlar va trafik boshqaruv tizimlari orqali tirbandliklarning oldini olishga yordam beradi. Yo‘ldagi yuklanish darajasiga qarab svetoforlar vaqtni avtomatik tarzda sozlaydi.

Uchinchiidan, intellektual transport tizimlari yonilg‘i sarfini va havo ifloslanishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Transport vositalari oqimini moslashtirish orqali transport chiqindilari miqdori qisqaradi.

To‘rtinchidan, elektron to‘lov tizimlari orqali yo‘l to‘lovleri, avtoturargoh xizmatlari va jamoat transportidagi chiptalarni osonlashtiradi. Bu vaqtni tejash va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga yordam beradi. Albatta, bu chora-tadbirlar nafaqat yo‘l harakati xavfsizligi va samaradorligini ko‘tarish, balki mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Intellektual transport tizimlari – kelajak transport infratuzilmasining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular yo‘l harakatini samarali boshqarish, xavfsizlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ushbu texnologiyalarni rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish orqali zamonaviy, qulay va xavfsiz transport muhiti yaratish mumkin.

**Inobat HAKIMOVA,**  
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi bosh mutaxassisi.

# TA'LIM TARAQQIYOTI SARI DADIL QADAM

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar o'z natijalarini bermoqda. Ko'plab yoshlarimiz xalqaro fan olimpiadalarida hamda boshqa musobaqalarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelayotgani, qolaversa, qabul kvotalari bir necha marotaba oshirilgani, yoshlarga, pedagoglarga katta imkoniyat hamda imtiyozlar berilayotgani, bunyodkorlik ishlarining o'sgani ham shundan dalolat, albatta.

Hech shubhasiz, davlatimiz rahbarining sa'y-harakatlari tufayli erishilayotgan yutuqlar zamirida Vatanimiz ilm-fanini rivojlantirish, oliy o'quv yurtlari faoliyatini tubdan yangilash, malakali o'qituvchi-professorlar korpusini shakllantirish, ta'lim jarayonlarini jahon andozalariga darajasiga ko'tarish va malakali mutaxassislar yetkazib berishdek ulug'vor vazifalar ijrosi turibdi.

ko'ra joriy o'quv yili yakuniga qadar 200 nafar, 2025/2026 o'quv yilida 600 nafar talaba Germaniya, Yaponiya, Xorvatiya, Gretsiya, Bolgariya kabi davlatlarda malakaviy amaliyot o'tash imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada universitet bitiruvchilari yuqoridagi davlatlarning tashkilot hamda korxonalarida o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga kirish imkoniyatini ham qo'lga kiritadi.

Prezidentimizning tegishli qarorlarida berilgan imkoniyatlar natijasida o'tgan yili universitetning 3-o'quv binosi talabalarining sifatli ta'lim olishi hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash uchun byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan kapital ta'mirlandi. O'quv xonalari tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash maqsadida qayta optimallashtirildi. Ta'lim jarayoni ehtiyojlari uchun qariyb 1,0 mlrd. so'mlik amaliyot va o'quv-klinik mashg'ulotlari uchun foydalaniladigan simulyatsion mulyajlar to'plamlari bilan jihozlandi.

Mazkur ta'mirdan chiqqan o'quv binosida kelgusi yilda "ANAMED"

magistratura mutaxassisliklari bilan birgalikda tayanch doktorantlar uchun ilmiy tadqiqotlarni olib borishga sharoit yaratiladi. Bu esa universitetga o'qishga kirgan har bir yosh uchun ta'lim bosqichlari uzviyligini ta'minlab, bakalavriatdan boshlab oliy ta'limdan keyingi ta'limga bo'lgan faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi.

Shu yilning birinchi choragida esa Shinjon Ekologiya va geografya instituti (XXR) bilan hamkorlikda ta'lim jarayonlarining amaliyot bilan bevosita integratsiyasini ta'minlash maqsadida 8 ta (alkologiya, biotexnologiya va mikrobiologiya, biokimyo va molekulyar biologiya, botanika, zoologiya) o'quv hamda ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish ishlari yakunlanadi. Ushbu laboratoriyalar ta'lim sifatini yanada oshirish bilan bir qatorda, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bioxilmaxillikni muhofaza qilish va resurslardan barqaror foydalanish, iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yumshatish, o'zgaruvchan muhitlarga chidamli o'simliklarni

kafedralarining ilmiy salohiyati ushbu ko'rsatkichdan oshdi.

Joriy yilda Biotexnologiya, O'zbek tili va adabiyoti, Ijtimoiy fanlar, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi, Pedagogika kafedralarining ilmiy salohiyatini ham belgilangan ko'rsatkichga yetkazish rejalashtirilgan. Qolaversa, dissertatsiya himoyalari sonini o'tgan yildagiga nisbatan 1,5 barobarga oshirish nazarda tutilgan.

Aytish kerakki, o'tgan yilda qiymati 3,7 mlrd. so'mni tashkil etuvchi uchta xalqaro qo'shma, bitta tijoratlashtirish va ikkita startap loyihalari bajarildi. Bu - 2023-yildagiga nisbatan 2,2 mlrd. so'm ko'p, degani. 2025-yilda bunday loyihalar sonini 2 barobarga oshirish uchun yangi loyihalar shakllantirish va tanlovlarda ishtirok etish mo'ljallangan.

Misol bilan aytadigan bo'lsak, universitetimizning ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyalarida sabzavot va no'anaviy xomashyalardan suklatlar ishlab chiqarish hamda po'lat simlarni cho'zish uchun kompozit materiallar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'tgan yili 200 mln. so'mlik mahsulotlar buyurtmachilarga yetkazib berildi. Bu boradagi ishlar hajmini yanada oshirish maqsadida universitetimiz laboratoriyalarida ishlab topilgan mablag'lar hisobiga 60 mln. so'mlik qaratish uskunasi, 49 mln. so'mlik qadoqlash uskunasi olib kelib o'rnatildi.

Iqtidorli talabalarni ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatga yo'naltirish maqsadida o'tgan yili ko'plab ilmiy seminar hamda o'quv mashg'ulotlari, ilmiy-innovatsion ko'rgazmalari, "Yoshlar akademiyasi" forumi o'tkazilgan ko'zlangan maqsadlarga erishishda turtki bermoqda.

Darvoqe, hududlarda ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida qariyb uch gektar maydonda yashil innovatsion - "Ekobog" yaratishga qo'l urildi. Bog' hududiga dunyoning beshta mintaqasida o'suvchi 86 turdagi 1 500 tup noyob daraxt va buta, 3 ming tupdan ortiq manzarali gullar ekildi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida o'tgan yilda universitet hududida 8 200 tup daraxt hamda buta ko'chatlari qadald. Joriy yilning yanvar-fevral oylarida yana ikki gektar maydonda "Ekobog" tashkil etiladi.

O'tgan yilda erishilgan natijalar haqida yana ko'p misollar keltirish mumkin. Albatta, yutuqlar o'zimizniki. Oldimda esa joriy yil uchun tuzilgan aniq maqsad hamda rejalar turibdi. Ular ijrosini ta'minlash orqali universitet nufuzi va salohiyatini yanada oshirish bizning asosiy vazifamiz bo'lib qoladi.

**Sobitxon TURG'UNOV,**  
Namangan davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

## YANGILIKLAR xabarlar

### TAFSILOTLAR

#### 19 ta medal – o'quvchilarimiz muvaffaqiyati!

13 - 17-yanvar kunlari Qozog'istonning Ostona shahrida matematika, fizika va informatika fanlarida 21-xalqaro Jautikov olimpiadasi bo'lib o'tdi.



Dunyoning 20 ta mamlakatidan 700 ga yaqin o'quvchilar ishtirok etgan ushbu olimpiadada O'zbekiston terma jamoasi ham qatnashib, zo'r muvaffaqiyatga erishdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, ham yurtlarimiz 2 ta oltin, 5 ta kumush va 12 ta bronza - jami 19 medalni qo'lga kiritdi. Ma'lumot uchun, O'zbekiston terma jamoasi o'tgan yili ushbu olimpiadada jami 14 medalga egallik qilgandi.

#### Muzeyda noyob eksponatlar

Faxriddin Sodiqovning boy ijodiy merosi va shaxsiy buyumlari O'zbek milliy maqom san'ati markazi muzey fondini boyitishda davom etmoqda.

Yana bir qator qimmatli eksponatlar muzeyga topshirildi. Ular orasida Usta Usmon tomonidan 1963-yilda Faxriddin Sodiqov uchun maxsus yasalgan dutor, Yunus Rajabiy qalamiga mansub "O'zbek xalq musiqasi" va "Shashmaqom" kitob jamlamalarining to'liq jildlari, shuningdek, noyob suratlar asl holatda taqdim etilgan.

Mazkur tarixiy eksponatlar F. Sodiqov ijodini chuqur o'rganish, milliy musiqa merosini keng targ'ib qilish va kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### O'rta Osiyodagi eng qadimiy metall qurollar

O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasidan xabar berishlarcha, Buxoroning Qorako'l tumanidagi Poykent maskanidan miloddan avvalgi I va milodiy I - IV asrlarga oid qurol-aslahalar topildi.



Qazish ishlari davomida ibodatxona marosimlarida qo'llanilgan qo'ng'iroqlar va isirigdonlar topildi. Bu buyumlar eramizdan avvalgi I asr va eramizning I asriga tegishli bo'lib, saklar hamda massagetlar davridan qolgan. Restavratrlar ushbu topilmalarni asl holatiga keltirish ustida ishlamoqda.

Bundan tashqari, uzunligi 13,7 metr bo'lgan katta zal yoki hovli atrofiga supalar ham topilgan. III-IV asrlarda u qo'shni ibodatxonadan pastda joylashgan, shuning uchun unga shimol tomondan 12 pog'onali, kengligi 3,4 metr zinapoya va pandus tushgan.

Arxeologik topilmalar sayyohlarning diqqatini jalb qilish bilan birga, yurtimizning boy tarixi haqida chuqurroq tasavvur beradi.

#### Nogironligi bor shaxslar uchun mashg'ulot bazasi

Bo'stonliq tumanidagi "Qoronqu" MFY, Xo'jakent qishlog'i hududidan 50 gektar yer maydoni adaptiv sport turlari bilan professional shug'ullanuvchi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mashg'ulot bazasi barpo etish maqsadida ajratildi.

Ushbu baza Prezidentning "Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida tashkil etilayotir.

Ma'lumot uchun, viloyatda 14 ta parasport turi bilan shug'ullanishga sharoit yaratilgan. 500 nafarga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. Bu boradagi imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Xususan, davlat sport maktablarida adaptiv sport bo'yicha guruhlar tashkil etish, mahallalardagi maydonchalarni nogironligi bo'lgan shaxslarga ham moslashtirish shular jumlasidan.

"Xalq so'zi".

## QIZG'IN VA MUROSASIZ BAHSLAR

Andijon shahridagi universal sport majmuasida umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan shaxmat bo'yicha O'zbekiston chempionati yakuniga yetdi.



Bir hafta davom etgan musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda barcha viloyatlar jamoalari tarkibida 850 nafar yosh shaxmatchi 6 ta - 7, 9, 11, 13, 15 va 17 yosh toifasida g'oliblik uchun bahs olib bordi.

Shveysar tizimida rapid, standart, blis yo'nalishlarida 7 tur doirasida o'tkazilgan chempionat o'yinlari qizg'in va murosasiz bahslarga boy bo'ldi.

Musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra umumjamoa hisobida Toshkent shahri jamoasi faxrli birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Ikkinchi o'rin Samarqand viloyati, uchinchi o'rin esa Andijon viloyati jamoalariga nasib etdi.

G'olib hamda sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom, tegishli medal va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

## ZAMONAVIY AVTOBUSLAR NUKUS KO'CHALARIDA



Aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash borasidagi ishlarning davomi sifatida Nukus shahriga Xitoy davlatidan 12 dona zamonaviy avtobus olib kelindi.

Qulaylik

Ma'lumotlarga ko'ra ushbu shaharda jami 15 ta avtobus yo'nalishi tashkil etilib, buning uchun 188 ta avtobus olib kelish rejalashtirilgan. Ayni paytda foydalanishga topshirilgan avtobuslar bu boradagi yangi

yo'nalishlarning dastlabkisi hisoblanadi.

Bunday zamonaviy avtobuslar jamoat transporti jozibadorligini yanada oshirib, xizmatlari sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston delegatsiyasi Avstriyada o'tkazilayotgan eng yirik xalqaro tadbirlardan biri - "Ferien Messe Wien" sayyohlik ko'rgazmasida ishtirok etmoqda.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqida ma'lumotlarni yubkib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyiyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va ummulligga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun oshimani rasmiylashtirgan tashkiloti javobdar.

Gazeta tahriyiyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begunratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbachi muharrir A. Norqulov.  
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 21.25 Topshirildi - 23.55 1 2 3 4 5 6